



PROBLEMS OF THE MECHANISM FOR CONDUCTING QUICK-SEARCH ACTIONS AND JUSTIFYING THE EVIDENCE COLLECTED IN IT

Bekzod Erkinbayevich Yakubov
Chairman of the Bogat district
Criminal court of Khorezm region
Khorezm, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: operational investigative activity, type of event, operational experiment, prosecutorial supervision.

Received: 24.11.25

Accepted: 25.11.25

Published: 26.11.25

Abstract: This article examines the types of operational investigative activities, the implementation of operational investigative activities and the main tasks of operational investigative activities and measures to ensure the legality of the results of activities, the legality of evidence collected during operational investigative activities, and provides scientific, theoretical and practical recommendations on the basics using this evidence as the main means in the investigation of crimes, as well as in proving guilt at a court hearing. At the same time, the opinions and reasoning of theoretical scientists and experienced employees were analyzed.

TEZKOR-QIDIRUV TADBIRLARINI O'TKAZISH MEKANIZMI VA UNDA TO'PLANGAN DALILLARNI ASOSLASH MUAMMOLARI

Bekzod Erkinbayevich Yakubov
Bog'ot tumani sudi raisi
Xorazm viloyati Jinoyat ishlari bo'yicha
Xorazm, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: tezkor-qidiruv faoliyati, tezkor eksperiment tadbir turi, konspiratsiya prinsipi, tezkor-qidiruv faoliyati natijalari va prokuror nazorati.

Annotatsiya: Ushbu maqolada tezkor-qidiruv faoliyatining turlari, tezkor-qidiruv tadbirlari o'tkazilishi va tezkor qidiruv faoliyatining asosiy vazifalari hamda faoliyat natijalarining qonuniyligi ta'minlash choralari, o'tkazilgan tezkor qidiruv tadbirlari davomida to'plangan dalillarning qonuniyligi va ushbu dalillardan jinoyat ishlarini tergov qilish

hamda sud muhokamasi davomida qilmishni aybliligini isbot qilishning asosiy vositasi sifatida foydalanish asoslari borasida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalar berib o'tilgan, shu bilan birga, nazariyotchi olimlar, tajribali amaliyotchi xodimlarning fikr va mulohazalari tahlil qilingan.

МЕХАНИЗМ ПРОВЕДЕНИЯ ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ПРОБЛЕМЫ ОБОСНОВАНИЯ СОБРАННЫХ В НЕЙ ФАКТОВ

Бекзод Эркинбаевич Якубов

Председатель Богатского района суда

по уголовным делам Хорезмской области

Хорезм, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: оперативно-розыскная деятельность, вид мероприятия оперативный эксперимент, прокурорский надзор.

Аннотация: В данной статье рассмотрены виды оперативно-розыскной деятельности, осуществление оперативно-розыскной деятельности и основные задачи оперативно-розыскной деятельности и меры по обеспечению законности результатов деятельности, законности доказательств, собранных в ходе оперативно-розыскной деятельности, даны научно-теоретические и практические рекомендации по основам использования этих доказательств в качестве основных средств при расследовании преступлений, а также при доказательстве вины на судебном заседании. Вместе с тем проанализированы мнения и рассуждения ученых-теоретиков, опытных сотрудников.

Kirish. Bugungi kunda tezkor-qidiruv faoliyati amaliyotining guvohlik berishicha, jinoyatlarni oldini olish, aniqlash, bartaraf etish va fosh etish maqsadida o'tkaziladigan tezkor-qidiruv tadbirlari nafaqat puxta tayyorlanishi, balki qonunda nazarda tutilgan shartlarga qat'iy amal qilgan holda o'tkazilishini taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonunining 16-moddasida tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish shartlari va huquqiy asoslari belgilangan bo'lib, bu – qonunda belgilangan tezkor tadbirlarning qonuniyligi va samaradorligini ta'minlovchi qoidalarining huquqiy asoslarini o'zida aks ettiradi.1

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi hududida jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha tezkor-qidiruv, tergov va boshqa maxsus vazifalarni mustaqil ravishda bajaruvchi xususiy tashkilotlar, jamoat birlashmalari va ularning

bo'linmalarini tuzish hamda ularning faoliyat ko'rsatishi taqiqlanadi. Qonuniylik va huquqiy tartibotni, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga jamoat tashkilotlari va fuqarolar yordam ko'rsatishlari mumkinligi belgilangan.

Shu sababdan ham, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksiga asosan Ichki ishlar, Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati, Davlat bojxona xizmati organlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi hamda Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va ularning joylardagi bo'linmalari shu maqsadda tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishga haqli bo'lib, tezkor-qidiruv faoliyatini o'tkazish tartibi qonun bilan belgilanishi ko'rsatilgan va ushbu organlarga bu boradagi faoliyatga qonuniy vakolat berilgan.

Adabiyotlar sharhi. Tezkor-qidiruv faoliyati va uning nazariy-huquqiy asoslarini o'rganishda ko'plab mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari muhim o'rin tutadi. Tadqiqot mavzusining dolzarbligi, ayniqsa, prokuror nazorati, dalillarning baholanishi va tezkor tadbirlarning qonuniyligini ta'minlash masalalarida yaqqol namoyon bo'ladi.

B.A. Azizxo'jayev o'zining asarida jinoyat protsessida dalillarni to'g'ri baholashning nazariy asoslarini yoritgan. Muallifning fikricha, tezkor-qidiruv tadbirlari davomida olingan dalillar faqat qonunda belgilangan tartibda rasmiylashtirilgandagina ishonchli hisoblanadi. Bu yondashuv bugungi kunda ham dalil sifatida e'tirof etish masalasining metodologik asosini tashkil etadi [2,3].

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Jinoyat-protsessual kodeksi esa tezkor-qidiruv faoliyatining huquqiy bazasini belgilab beradi. Mazkur hujjatlar orqali fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jinoyatlarni aniqlash va fosh etishda qonuniylik tamoyiliga qat'iy rioya etish zarurligi ta'kidlanadi [14,15].

V.I. Zajitskiy va A.K. Zakurlaev tezkor-qidiruv faoliyatini huquqni muhofaza qilish tizimining tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqib, uni davlat yuridik faoliyatining ijtimoiy foydali turi deb baholagan. Ularning tadqiqotlari tezkor-qidiruv tadbirlarining tashkiliy-huquqiy jihatlarini ochib beradi [12,11].

D.I. Bednyakov va T.M. Reznik asarlarida dalillarni baholashda "ichki ishonch" tamoyili, shuningdek, jinoyatni ochishda nooshkora axborotning o'rni tahlil qilingan. Ularning fikricha, tezkor axborotning qonuniyligi va ishonchliligi jinoyat protsessida dalil sifatida e'tirof etilishining muhim mezonidir [5,8].

A.P. Rijakov va F.X. Rahimov o'z ishlarida tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning vakolatlari va ularning operativ vositalardan foydalanish mexanizmlarini tahlil qilganlar. Ayniqsa, Rahimov tezkor axborot almashinuvining samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalarining o'rni haqida to'xtalib o'tgan [9,7].

G.A. Abdumajidov va A.S. Barabash esa jinoyatlarni dastlabki tergov bosqichida dalillarni to'plash va baholash jarayonida uchraydigan muammolarni yoritgan. Ularning fikricha, tergov jarayonida prokuror nazorati va tezkor tadbirlar o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud bo'lib, bu qonuniyligni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega [1,4].

A.A. Xakberdiyev o'zining "Tezkor-qidiruv faoliyati" o'quv qo'llanmasida tezkor eksperiment, tezkor kuzatuv, nazorat ostida yetkazib berish kabi tadbirlarning huquqiy tartibini batafsil bayon etgan. U ushbu tadbirlarni amalga oshirishda prokuror sanksiyasining ahamiyatini alohida ta'kidlaydi [10].

Z.Z. Zinatullin tomonidan yozilgan ishda jinoyat-protsessual isbotlash masalalari chuqur o'rganilib, tezkor axborotlarni dalilga aylantirish mexanizmlari tahlil qilingan. Muallif dalilning maqbulligi, ishonchliligi va yetarliligi mezonlariga e'tibor qaratgan [13].

B.T. Bezlepkina o'zining asarida dalillar tizimining nazariy asoslarini tahlil qilib, jinoyat-protsessual faoliyatda qonuniyligini tamoyilini mustahkamlash zarurligini ta'kidlaydi [15].

Shuningdek, xalqaro huquqiy manbalar — BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" (1948) hamda "Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish to'g'risida"gi Yevropa konvensiyasi (1950) huquqni muhofaza qilish organlarining tezkor faoliyatida inson huquqlariga rioya etish zarurligini belgilaydi. Bu xalqaro me'yorlar milliy qonunchilikning insonparvarlik tamoyillari bilan uyg'unlashgan holda rivojlanayotganini ko'rsatadi [6,16].

Metodlar. Tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishning shartlari va huquqiy asoslari quyidagilardir, ya'ni:

- a) tezkor-qidiruv tadbirlari muayyan davlatning chegaraviy hududida o'tkazilishi;
- b) barcha fuqarolarga nisbatan;
- d) faqat tezkor-qidiruv faoliyati maqsad va vazifalarini hal etish uchun;
- e) fuqarolarning hayoti va sog'lig'i, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki hamda atrof-muhit xavfsizligiga zarar yetkazmaydigan vositalarni qo'llashdan iboratdir.

Aslida, tezkor-qidiruv tadbirlari fuqarolar murojaatlari asosida, tezkor faoliyat bilan bevosita shug'ullanuvchi organlarga kelib tushgan tezkor ma'lumotlar asosida, tezkor-qidiruv faoliyati bilan shug'ullanuvchi organlar tomonidan to'plangan hujjatlar bo'yicha o'rganilgan holatlar yuzasidan va boshqa shu kabi ma'lumotlar asosida o'tkaziladi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish amaliyotining guvohlik berishicha, aksariyat jinoyatlar yashirin va niqoblangan usullarda sodir etilib, ularni tergov-protsessual yo'llar bilan aniqlash, oldini olish, fosh etish qiyin, hattoki ba'zan imkonsiz bo'ladi.

Natijalar va muhokama. Tezkor-qidiruv tadbirlari huquqni muhofaza qilish faoliyati shakllaridan biri hisoblanganligi bois, maxsus vakolat berilgan subyektlarning qonun hujjatlariga

asoslangan, maxsus kuchlar, vositalar va usullarni yashirincha va oshkora qo'llashdan, shuningdek tezkor-qidiruv harakatlarini bajarish va operativ ahamiyatga molik qarorlar qabul qilishdan iborat bo'lgan harakatlar tizimini o'zida ifodalaydigan, mumkin bo'lmagan holda amalga oshiriladigan ijtimoiy foydali davlat yuridik faoliyatining bir turidir.

Tezkor-qidiruv tadbirlarining nooshkora tusda bo'lishi deganda, tezkor xodim yoki tezkor-qidiruv faoliyatining boshqa kuchlari tomonidan o'tkaziladigan tadbirlar jinoyatda gumonlanayotgan shaxslarga oshkor bo'lmashligi tushuniladi. Bunda, birinchidan, ularning tezkor bo'linmalar harakatlariga qarshi turishlarining oldi olinadi, ikkinchidan, jinoyatchilikka qarshi kurashishda tezkor-qidiruv faoliyatining kuchlari va vositalari oshkor bo'lmashligi ta'minlanadi.

Latent (yashirin) jinoyatlarni aniqlashda hududlardagi tezkor vaziyatlarni to'g'ri baholash, aniq rejalashtirish, kuchlar va vositalarni to'g'ri joylashtirishga sezilarli to'siq bo'ladi. Shu sababli latent jinoyatlarni aniqlash bo'yicha tegishli choralar ko'rish, tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshiruvchi organlar tezkor xodimlaridan tezkor xabardorlikni, jinoyatga aloqador shaxslarni muntazam nazorat qilishni, ularning to'liq hisobini yuritishni, faol qidiruv ishlarini olib borishni, tezkor axborot almashinuvini to'g'ri tashkil etishni va ulardan to'g'ri foydalanishni talab qiladi.

Tezkor-qidiruv faoliyatining eng asosiy vazifalaridan biri – davlat xavfsizligiga tahdid soluvchi shaxslar, voqealar va harakat (harakatsizlik)lar to'g'risida axborot to'plash hisoblanadi. Tezkor-qidiruv faoliyatining barcha bosqichlarida muayyan axborotlarni qo'lga kiritish va ularni amalga oshirilishini ta'minlash natijasida yakuniy, tugallanganlik tusini oladi va jinoyat protsessi sohasiga o'tadi.

Chunki tezkor-qidiruv tadbirlari davomida to'plangan axborotlar va boshqa ma'lumotlarning qonuniyligi jinoyat protsessi bosqichida huquqiy jihatdan baholanadi va tasdiqlanadi yoki mavjud holatlar inkor qilinadi.

Tezkor-qidiruv faoliyati jinoyatchilikka qarshi kurashda davlatning huquqiy shakllaridan biri hisoblanadi. Bu esa ushbu faoliyatni, birinchidan, maxsus vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriluvchi faoliyat deb atashni, ikkinchidan esa, qonun va boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga qat'iy rioya qilgan holda ma'lum maqsadga yo'naltirilgan faoliyat deb ifodalashni bildiradi. Tezkor-qidiruv faoliyatining prinsiplariga esa qonunchilik hujjatlarida qayd qilingan, amaliyotda ishlab chiqilgan, jamiyatning tezkor qidiruv kuchlari, vositalari va tezkor-qidiruv tadbirlarini qo'llashni tashkil etish va o'tkazish taktikasiga oid asosiy qoidalar kiradi.

Tezkor tadbirlarni qonunchilik talablaridan kelib chiqib, quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin, ya'ni:

- tezkor-qidiruv tadbirini o'tkazish uchun ruxsat (sanktsiya) talab qilinmaydigan tadbirlar;
- tezkor-qidiruv organi rahbarining qarori bilan, prokuror sanktsiyasi asosida o'tkaziladigan tadbirlar;

- prokuror sanksiyasi asosida o'tkaziladigan tadbirlar.

Tezkor-qidiruv faoliyatining asosiy vazifalari — jinoyatlarni aniqlash, oldini olish, ochish, shuningdek ularni tayyorlayotgan, sodir etayotgan yoki sodir etilgan shaxslarni aniqlash va fosh etish hisoblanadi.

Ayni shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasining 25.12.2012 yilda "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinib, ushbu qonunning 14-moddasida tezkor-qidiruv tadbirlarining 16 ta turi belgilangan. Ulardan ba'zilari: tekshirish uchun xarid qilish, nazorat ostida olish, tezkor kuzatuv, tezkor kiritish, O'zbekiston Respublikasining ichkarisida amalga oshiriladigan nazorat ostida yetkazib berish, niqoblangan operatsiyalar, tezkor eksperiment.

Ushbu tadbirlar tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organ rahbari tomonidan tasdiqlangan qaror asosida o'tkaziladi.

Tekshirish uchun xarid qilish, nazorat ostida olish va nazorat ostida yetkazib berish esa prokuror bilan albatta kelishilgan holda amalga oshirilgan taqdirdagina Jinoyat-protsessual kodeksining 81-moddasiga asosan dalil sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Chunki prokuror o'tkazilgan tezkor tadbir natijasi bo'yicha taqdim etilgan materiallarni ko'rib chiqadi, tegishli tezkor-qidiruv tadbirini o'tkazishga sanksiya beradi yoki rad etadi hamda bu haqda qarorda qayd etadi. Agar prokuror sanksiya berishni rad etsa, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organ yuqori turuvchi prokurorga bunday qaror ustidan shikoyat qilishga haqlidir.

"Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonunning 27-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradilar hamda prokurorlar ularga taqdim etilgan hujjatlar va materiallardagi ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlaydilar.

Masalan, tezkor eksperiment — g'ayrihuquqiy qilmish sodir etgan yoki unga tayyorgarlik ko'rayotgan shaxslarni fosh etish va aniqlash maqsadida tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organ tomonidan to'liq boshqariladigan va nazorat qilinadigan sharoitni ma'lum hodisani qayta tiklash yo'li bilan sun'iy ravishda vujudga keltirishdan iborat bo'lgan tezkor tadbir, korrupsiya jinoyatlarini fosh etishda eng asosiy tadbirlardan biri hisoblanadi.

Chunki ushbu tezkor tadbir davomida O'zbekiston Respublikasi JPKning 91 va 92-moddalarida belgilangan talablar bajarilmasa, protsessual hujjatlar to'g'ri va qonuniy rasmiylashtirilmasa, ashyoviy dalillar olinmasa — o'tkazilgan tezkor tadbir va tadbir davomida to'plangan barcha dalillar ushbu Kodeks talablariga ko'ra nomaqbul shaklga keladi. Natijada, fosh qilingan jinoyat gumon qilinuvchining aybini isbotlashni istisno qilishi oqibatida jinoyat ishini tugatishga sabab bo'ladi.

Vaholanki, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyasining 28-moddasiga ko'ra, jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo'li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanadi.

Shuningdek, JPKning 23-moddasiga ko'ra, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud jinoyat yuz berganligini, uni kim sodir etganini, hamda u bilan bog'liq barcha holatlarni aniqlashi, ish bo'yicha haqiqatni aniqlash uchun faqat qonunda belgilangan tartibda topilgan, tekshirilgan va baholangan ma'lumotlardan dalil sifatida foydalanishi mumkin. Gumon qilinuvchidan, ayblanuvchidan, sudlanuvchidan, jabrlanuvchidan, guvohdan va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslardan ularning huquqlarini cheklovchi yoki qonunga xilof choralarsiz ko'rsatmalar olish mumkin emas. Ish bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan barcha holatlar sinchkovlik bilan, har tomonlama, to'liq va xolisona tekshirilishi, dalillarni to'plash va mustahkamlashda ruxsat etilmagan usullar qo'llanilganligi haqidagi murojaatlar majburiy tekshirilishi shart.

Bundan ko'rinadiki, tezkor-qidiruv faoliyati natijasida to'plangan narsa (buyum) va hujjatlarni dalil sifatida e'tirof etishda ularning aloqadorligi, maqbulligi, ishonchliligi, ahamiyatliligi va yetarliligi to'g'risidagi jinoyat-protsessual qonunchilik talablariga rioya etilishini ta'minlashning ilg'or tajribasini o'rganish va tahlil qilish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanishning asosiy sababi — jinoyat belgilariga oid dastlabki ma'lumotlarni aniqlash va tekshirish, qiyosiy tekshirish uchun namuna to'plash, jinoyiy faoliyat bilan shug'ullanayotgan yoki jinoyat sodir etishda ishtirok etayotgan shaxslar haqidagi ma'lumotlarni aniqlash, qayd etish, jinoyat sodir etgan shaxslarni aniqlash va jinoyat ustida qo'lga olishdir.

Bugungi kunda tezkor-qidiruv faoliyati amaliyoti shuni ko'rsatadiki, jinoyatlarni oldini olish, aniqlash, bartaraf etish va fosh etish maqsadida o'tkaziladigan tezkor-qidiruv tadbirlari nafaqat puxta tayyorlanishi, balki qonunda nazarda tutilgan shartlarga qat'iy amal qilingan holda o'tkazilishi talab etiladi.

Bir qator tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirish jarayonida qo'lga kiritilgan jinoyat sodir etgan shaxslar haqidagi dastlabki ma'lumotlar jinoyat ishi bo'yicha dalillarni to'plash va tekshirishga qaratilgan keyingi tergov harakatlarini to'g'ri tanlashga yordam beradi.

Tezkor-qidiruv tadbirlari natijalaridan jinoyat ishlari bo'yicha dalil sifatida foydalanish jiddiy qiyinchiliklar tug'diradi, chunki tezkor-qidiruv tadbirining yashirin xususiyatini saqlagan holda uning natijalarini izohlash, tezkor axborotni dalilga aylantirish usullarini topish zarur bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, fuqarolarning huquq va erkinliklarini cheklovchi tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish huquqiy davlat asoslariga putur yetkazmaydi. Chunki inson huquq va erkinliklarini cheklovchi normalar bir qator xalqaro-huquqiy hujjatlarda ham mavjud bo'lib, ya'ni BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 10.12.1948 yilda qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" hamda 04.11.1950 yilda qabul qilingan "Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish to'g'risida"gi Yevropa konvensiyasi va boshqa xalqaro hujjatlarda bunday cheklovlarga faqat qonunda belgilangan hollardagina yo'l qo'yilishi qayd etilgan.

Shuningdek, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"da tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzgan taqdirda, ularning buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini tiklash, yetkazilgan zararining o'rnini qoplash hamda aybdorlarni javobgarlikka tortish choralarini ko'rishi shartligi belgilangan.

Bunda fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, birinchidan, ularning tegishli instansiyalarga shikoyat qilish imkoniyatlari orqali, ikkinchidan esa, fuqaro murojaat qilmagan taqdirda ham tezkor-qidiruv faoliyati ustidan idoraviy va prokuror nazorati jarayonida ta'minlanishi mumkin.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, prokurorning tezkor-qidiruv faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish vakolatlari doirasidagi qonuniy talablarning bajarilmasligi qonunlarda belgilangan tartibda javobgarlikni yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, o'tkazilgan tezkor-qidiruv faoliyati davomida olingan ashyolar va boshqa hujjatlarning dalil sifatida e'tirof etilmasligiga, hamda jinoyat ishlarini tergov qilish va sud muhokamasida ko'rib chiqish davomida ayblilik masalasini isbotlashning asosiy omili hisoblanmasligiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdumajidov G.A. Проблеммы совершенствования предварительного расследования. – Toshkent: "Fan", 24.03.1999. S.145.
2. Azizxodjaev B.A. Оценка доказательств в уголовном процессе. – Toshkent: "O'zbekiston", 06.04.1995 y. 98–99-b.
3. Azizxodjaev B.A. Оценка доказательств в уголовном процессе. – Toshkent: "Uzbekiston", 06.04.1999 y. 98–99-b.
4. Barabash A.S. Сущность уголовного процесса и его роль формирования ответственности правонарушителя. – Krasnoyarsk: "Юрид", 02.07.2007 y. 131–132-b.
5. Bednyakov D.I. Непроцессуальная информация и расследование преступлений. Москва. – Moskva: "Юрид", 27.08.2014. S.54.
6. Bezlepkin B.T. Доказательства в уголовном процессе. Darslik. – Moskva: "Nauk", 28.05.1999. S.75.

7. Rahimov F.X. Tezkor-qidiruv faoliyati: O'quv qo'llanma. – Toshkent, 13.04.2019. B.71.
8. Reznik T.M. Внутреннее убеждение при оценке доказательств. – Moskva: “Норма”, 16.02.2018. S.62.
9. Rijakov A.P. Предварительное расследование. Uchebnoe posobie. – Tula: “Норма”, 25.01.2008. S.319.
10. Xakberdiev A.A. Tezkor-qidiruv faoliyati: O'quv qo'llanma. – Toshkent: “TDYuU”, 02.06.2017 y. 105–106-b.
11. Zakurlaev A.K. Tezkor-qidiruv faoliyati: O'quv qo'llanma. – Toshkent: “Fan”, 27.08.2014. B.3.
12. Zajitskiy V.I. Закон об оперативно–розыскной деятельности уголовного - процессе.– Moskva: “Норма”, 08.04.2001 y. 58–59-b.
13. Zinatullin Z.Z. Уголовно-процессуальное доказывание. Uchebnoe posobie. – Izhevsk: “Юрид”, 04.09.2001 y. 147–148-b.
14. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi. – Toshkent, 23.11.2023. - 391-m, 2-q.
15. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – 30.04.2023. - 146-m.
16. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”. – 10.12.1948. - 7-m, 2-q.